

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN o‘TKAZISH UCHUN MAXSUS
RASM FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MAXSUS RASM FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Maxsus rasm talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.o‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Maxsus rasm

- 1.Perespektiva va kompozitsiya, geometrik jismlar, natyurmormort chizish
- 2.Mato to‘shalgan holda hosil bo‘ladigan taxlama va soyalar
- 3.Kishi tana tuzilishidagi nisbiylik
- 4.Rang to‘g‘risida tushuncha
- 5.Kiyim modellarini chizish. Kishi gavdasi burilgan holatida chizish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktalar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktalar	Testlar soni
1	Perespektiva va kompozitsiya, geometrik jismlar, natyurmormort chizish	Perespektiva va kompozitsiya haqida tushuncha, geometrik jismlar, geometrik shaklga ega jismlar ramini chizish, yorug'lik-soya yordamida jismning hajmini tasvirlash, natyurmort chizish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	16
2	Mato to'shalgan holda hosil bo'ladigan taxlama va soyalar	Drapirovkalar, taxlamalar va soyalar rasmini chizish, uy anjomlari va jismlarini soya asosida chizish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	1
3	Kishi tana tuzilishidagi nisbiylik	Boalar, ayollar, erkaklar tana tuzilishidagi nisbiylik, kishi kalla tuzilishidagi, oyoq, qo'llar rasmini chizish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	12
4	Rang to'g'risida tushuncha	Xromatik va axromatik ranglar, milliy naqsh va ranglar jadvalini chizish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8
5	Kiyim modellarini chizish. Kishi gavdasi burilgan holatida chizish	Ayollar, boalar, erkaklar gavda tuzilishini sxema bo'yicha chizish, ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini gavdaga kiysirilgan holatda chizish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	3

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Saida Fazliddinova "Maxsus rasm" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2013
2. Saida Fazliddinova "Maxsus rasm" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2016

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.